

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/09.07.2020.San.118.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDADAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

JABBAROVA LATOFAT TULKINJONOVNA

**O‘ZBEKISTONDA MUZEY DIZAYNINING
RIVOJLANISH TAMOYILLARI
(XX ASR IKKINCHI YARMI - XXI ASR BOSHLARI)**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta‘mirlash va saqlash**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Jabbarova Latofat Tulkinjonovna

О‘zbekistonda muzey dizaynining rivojlanish tamoyillari (XX asr ikkinchi yarmi - XXI asr boshlari).....3

Jabbarova Latofat Tulkinjonovna

Тенденции развития музейного дизайна в Узбекистане (вторая половина XX - начало XXI века).....21

Jabbarova Latofat Tulkinjonovna

Trends in the development of museum design in Uzbekistan (second half of the 20th century - beginning of the 21st century).....42

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works46

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/09.07.2020.San.118.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDADAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

JABBAROVA LATOFAT TULKINJONOVNA

**O‘ZBEKISTONDA MUZEY DIZAYNINING
RIVOJLANISH TAMOYILLARI
(XX ASR IKKINCHI YARMI - XXI ASR BOSHLARI)**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta’irlash va saqlash**

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/San173. raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o‘zbek, rus) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.stateartmuseum.uz>) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxamedova Munisa Sabirovna
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ismailova Jannat Xamidovna
tarix fanlari doktori, professor

Binafsha Nodir
san‘atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/09.07.2020.San.118.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil «___»_____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 16-uy. O‘zbekiston davlat san‘at muzeyining majlislar zali Tel.: (99871) 236-74-36; faks: (99871) 236-77-40; e-mail: tmi2007@mail.ru

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat san‘at muzeyining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 16-uy.). Tel.: (99871) 236-74-36; faks: (99871) 236-77-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___»_____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.V.Xasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

V.S.Fayziyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.A.Madrimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon muzeylari arxitekturasida konservativlikdan voz kechib, tabiat bilan uyg'unlashgan, ekologik standart talablariga javob bera oladigan funksional moslashuvchan bino loyihalari talabgir bo'lib, ekspozitsiya muhitida esa kreativ ishlanmalar tadbiri rivojlanmoqda. Zamonaviy muzey binolarini tashkil etishda innovatorlik, ekspozitsiya yechimida esa konseptual dizayn ishlanmalari ranglar konteksi, vizual balans va yorug'lik intensivligi hamda dinamikasi negizida innovatsion texnologiyalar imkoniyatlari kengaydi. Bu borada O'zbekistonda muzeylarni brendlashtirishda me'moriy va ekspozitsion muhit birligini takomillashtirish, interaktiv, multimedia va sensor kreativ muzey dizayni shakllarini amaliyotga joriy etish kabi tadqiqotlar dolzarblashmoqda.

Jahon san'atshunoslik ilmida muzey arxitekturasi paradigmasi kengayishining sabablari, uning me'moriy va ekspozitsion holati badiiy yechimining tadrijiy rivojiga oid fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. «Sanaa», «Coop Himmelblau» byurosi, Buyuk Britaniyadagi «Arxitektura assotsiatsiyasi milliy markazi», Gollandiyaning Delfta universiteti «Madaniy binolar arxitekturasi» fakulteti va Germaniyaning Bauhaus universitetida tarixiy binolarni muzeylashtirish, zamonaviy binolar hamda muzey ekspozitsiyasi yaratishga oid bir qancha prospektiv xalqaro loyihalar bajarilmoqda. Zamonaviy muzeylar muhitini rivojlantirish masalalari negizida muzey interaktiv hududini yaratish, inklyuziv loyihalar, kommunikativ yechim, muzey auditoriyasini kengaytirish, ekspozitsiya ishiga yangicha yondashuv, muzey ishida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muammolarini tadqiq etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikada so'nggi yillarda mavzuga xos kreativ ekspozitsion muhitda Maqom muzeyi, jadidlar hayoti va xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qatag'on xotirasi davlat muzeyi va uning har bir viloyatda filiallari tashkil etildi. O'zbekiston davlat san'at muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi uchun innovatsion funktsionallik asosidagi yangi binolari qurilishi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyasi yangilanishi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyini kapital ta'mirlash, Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yetti yillik dasturni qabul qilish va Fransiya bilan birga Milliy restavratsiya markazini tashkil etish rejalashtirildi. «Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo'yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinadi»¹. Muzeylar faoliyatini tubdan isloh qilish, muzey ekspozitsiyalari jozibadorligini oshirish va sohaga multimediya loyihalarining jalb etilishi muzeylar dizaynini takomillashtirish, milliy muzeylar rebrandingiga oid tadqiqotlarni dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqidan // Uchinchi renessans poydevorini ma'naviyati yuksak xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz. 2023-yil, 23-dekabr.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrda qabul qilingan «Muzeylar to'g'risida»gi O'RQ-177-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi F-5024-son «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoyishi, 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son «O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 27-may PQ-261-son «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-son «2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2019-yil 19-dekabrda 1019-son «2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy tadqiqot mavzusiga oid arxiv hujjatlari, davriy nashrlar, ilmiy adabiyotlar hamda manbalar tadqiq qilinishi jarayonida dissertatsiya maqsad va vazifasidan kelib chiqib o'rganildi.

XX asr ikkinchi yarmidagi O'zbekiston muzeylari faoliyati, ekspozitsiya muhitining rivojlanishiga doir tadqiqotlar orasida L.Landa, Yu.Glass hamda X.Sodiqov, Ye.Soy² mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan birinchi majmuaviy yo'l ko'rsatkich-ma'lumotnomani keltirib o'tish joiz. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston muzeylarining ekspozitsiyalari davr g'oyaviy-siyosiy muhiti jihatiga urg'u berilgan holatda yoritilgan bo'lib, badiiy yechimi ham qisman tahlil etilgan hamda muzey binolarining fotosuratlarini matn uyg'unligida ifoda etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston muzeylarining me'moriy-badiiy rivojlanish jarayonlar O'zbekiston Milliy arxivi, Madaniy meros agentligi joriy arxiv manbalari³ asosida tahlil etilib, tadqiqot ishi negizida ilmiy muomalaga kiritildi.

² Гласс Ю., Ланда Л. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Т.: Госизд., 1961. – 182 с.; Садыков Х., Гласс Ю., Цой Е. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Т.: Фан, 1978. – 118 с.

³ Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги архиви. Б-4307. К-40. Предварительные работы по памятнику архитектуры жилого дома Файзуллы Ходжаева. Ташкент, 1979 г. – 65 с.; Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги архиви. Т-6298. Д-69. Предварительные работы по памятнику архитектурные резиденция Князя Н.К.Романова. Ташкент, 1980 г. – 25 с.; Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги архиви. Т-5060. Д-69. Книга Т. Исследования памятника архитектуры перед началом реставрационных работ. Дворец Князя Н.К.Романова в г. Ташкенте (флигель). Ташкент, 1981 г. – 32

O'zbekistonda muzey dizayni muzeyshunoslik rivoji bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar⁴ asosida o'rganildi. Bu borada, N.Sodiqova⁵ tomonidan O'zbekistonda muzeylar qurilishi davrlashtirilgan holda tadqiq etilib, muzeylar faoliyati, tashkil etilish tarixi va rivojlanish jarayonlari statistik ma'lumotlar asnosida tahlil etilgan. O'zbekistonda dastlabki muzeylarning qurilishi, muzeylar boshqaruvi, muzeylarda ilmiy fond ishlarini tashkil etish kabi masalalar keyinchalik I.Ilalov, R.Almeyev, J.Ismailova, D.Kuryazova⁶ning ilmiy izlanishlarida ham ma'lum tarixiy faktologik ma'lumotlar asosida keltirib o'tilgan. M.Muxamedova, V.Fayziyeva, K.Nishanova, Sh.Miraliyevalarning⁷ dissertatsiya ishlarida tarixiy-madaniy meros obyektlarining muzeylashtirilishi va ulardan foydalanish jihatlari, badiiy hamda zamonaviy xususiyatlar qamrovidagi virtual muzeylar tashkil etish jihatlari yoritilgan. Ammo, ushbu tadqiqotlarda O'zbekiston muzeylarining arxitekturasi va badiiy ekspozitsion tahlillariga oid ma'lumotlar keltirib o'tilmagan.

Xorijiy muzeyshunos, arxitektor olimlar izlanishlari asosida muzey dizaynining rivojlanish xususiyatlari XX asr ikkinchi yarmiga oid nashrlar tahlili tadqiqot ishining nazariy metodologik jihatlari yoritishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, zamonaviy muzey arxitekturasi va ekspozitsiyasi dizayni va uning muammolari to'g'risidagi ma'lumotlar arxitektorlar R.Meyer, P.Pyano, T.Ando⁸, muzeyshunos olimlar M.Gebelxauzen, E.Bogle⁹ manbalari orqali soha yechimiga oid muammolarga tanqidiy xulosalar keltirilgan.

Rossiya muzeylarining badiiy me'moriy-ekspozitsion ish tajribasiga bag'ishlangan fundamental ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot materiallari ham

с.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 3-рўйхат, 11-йиғма жилд, 30-31 varaqlar.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 7-рўйхат, 299-йиғма жилд.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 7-рўйхат, 568-йиғма жилд.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2487-фонд. 2-рўйхат, 885-иш, 54-59 varaqlar.; Ўзбекистон Миллий архиви. 394-фонд, 1-рўйхат, 300-иш, 57-varaqlar.

⁴ Курязова Д. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фан. ном.дис. – Ташкент, 2009. – 155 б.; Альмеев Р. Музеи Ўзбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991–2000 гг.) Автореф. на соиск. уч. ст. докт. ист. наук. – Ташкент, 2012. – 50 с.; Курязова Д. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фан. док. дис. ... автореферати. – Тошкент, 2023. – 68 б.

⁵ Садикова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975. – 290 с.; Садикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. Т.: Фан, 1981. – 266 б.

⁶ Илалов И. Музееведение. – Т.: Мусиқа, 2006. – 357 с.; Альмеев Р. Музеи Ўзбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т.: Гафур Гулям. 2007. – 268 с.; Курязова Д. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Т.: Сан'ат, 2010. – 154 б.; Исмоилова Ж. Замонавий музейшунослик асослари. Т.: Турон Замин Зиё, 2016. – 324 б.; Kuryazova D. Muzey ishi asoslari. – Т.: Lesson Press, 2019. – 196 б.

⁷ Muxamedova M. O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan obyektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari (XX asr II yarmi – XXI asr boshlari). Monografiya. – Т.: O'zbekiston, 2023. – 162 б.; Файзиева В. Ўзбекистон давлат санъат музейи: тарихи, ривожи ва истикболи (XX–XXI asrlar) Тарих фан. ном. дис. – Тошкент, 2021. – 151 б.; Нишанова К. XX-XXI asrlarda Ўзбекистон бадий музейларининг ривожланиш тенденциялари. Санъатшунослик фан. ном. дис. – Тошкент, 2021. – 151 б.; Миралиева Ш. Виртуал музейлар яратишнинг жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истикболлари. Тарих фан. фалсафа док. автр. – Тошкент, 2019. – 54 б.

⁸ Meier R. Making Architecture. The Getty Center. The J. Paul Getty Trust Los Angeles, 1997. – 179 p.; Piano R. Whitney: The Whitney Museum of Art. 2015. – 196 p.; Ando T. Tadao Ando at Naoshima: Art Architecture Nature. 2006. – 208 p.

⁹ Glebelhausen M. The architecture is the museum // New museum theory and practice: an introduction/ed.by Marstine J. Oxford:Blackwell Publishing Ltd., 2006. S.I.P. 41-42.; Bogle E. Museum Exhibition Planning and Design. USA: AltaMira Press, 2013. – 418 p.

o'rganib chiqildi. Jumladan, A.Mixaylovskaya, I.Gorbunov, M.Chesnokova, A.Chugunova, K.Surikova, Ye.Shipunova, A.Ryabushin, A.Sherbina, T.Polyakov, Ye.Bakushkina, Ye.Mastenitsa, L.Shlyaxina, L.Xudyakova, Ye.Volkova, I.Zaxarchenko¹⁰ kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarida arxitekturaviy yechim borasida O'zbekiston muzeylari arxitekturasiga yaqin retrospektiv me'moriy badiiy qurilmalar rivoji, muzey ekspozitsiyasidagi uslubiy tendensiyalar, ekspozitsiya tuzish metodlari, zamonaviy muzeylar muhitida interaktiv hududini yaratish, inklyuziv loyihalar dizayni, muzey morfologiyasi, dizayni kabi muammolar tahlili o'rganilgan.

O'zbekistonda muzey ishi amaliyoti jarayonlarini ilmiy-tahliliy o'rganishga doir bir qator tadqiqotlar bo'yicha xulosaviy fikr bildirilganda, XX asr ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida aynan muzey dizaynining rivojlanishiga bag'ishlangan jarayonlar fundamental asosda yoritilmaganini kuzatish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-422105582 «O'zbekiston badiiy ta'lim tizimida «Onlayn muzey» elektron galereyasini yaratish» (2019-2021-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida O'zbekistonda muzey dizayni rivojlanish tamoyillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

muзей binolari dizayni rivojlanishining ilmiy-amaliy aspektlarini xorijiy va mahalliy muzeylar bilan qiyoslagan holda o'ziga xos me'moriy hamda badiiy xususiyatlarini aniqlash;

¹⁰Михайловская А. Музейная экспозиция. – М.: Советская Россия, 1964. – 520 с.; Горбунов И. Архитектоника музейной экспозиция: предметно-пространственная среда и основы функционального и художественного проектирования музеев. Монография. – Витебск: ВГУ имени П.Машерова, 2015. – 104 с.; Горбунов И. Музейная экспозиция: цвет, пластика, пространство (в контексте проектной культуры последнего тридцатилетия). Монография. – Витебск: ВГУ имени П.Машерова, 2017. – 167 с.; Чеснокова М. Эволюция музейной экспозиции как знаковой системы. автореф. на соискание уч.степ. кандидата культ. – Санкт-Петербург, 2010. – 30 с.; Чугунова А. Музейная архитектура в контексте современной культуры // Вопросы музеологии. 1/2010. – С. 34-43.; Сурикова К. Культурный контекст эволюции музейной архитектуры. автореф. на соискание уч.степ. кандидата культ. – Санкт-Петербург, 2017. – 26 с.; Шипунова Е. Современные тенденции в музейной архитектуре / [Электронный ресурс]: http://museumstudy.ru/wp-content/uploads/2015/12/shi_punova_sovr_tendencii_v_muz_archi.pdf (Murojaat sanasi: 10.01.2024); Рябушин А. Новые горизонты архитектурного творчества, 1970–1980-е годы. – М.: Стройиздат, 1990. – 327 с.; Щербина А. Музейное проектирование : учебно-методическое пособие. – Тольятти : ТГУ, 2011. – 68 с.; Поляков Т. Как делать музей? (О методах проектирования музейной экспозиции). – М.: Высшая школа, 1997. – 174 с.; Бакушкина Е. Архитектура музейных зданий второй половины XX – XXI века. автореф. на соискание уч.степ. кандидата искусств. – Санкт-Петербург, 2016. – 27 с.; Мастеница Е. Музейное пространство как культурологическая категория // Третий Российский культурологический конгресс с международным участием «Креативность в пространстве традиции и инновации» : тезисы докладов и сообщений. - СПб. : Эйдос, 2010. – 217 с.; Шляхтина Л. Основы музейного дела. Теория и практика. – М.: Высшая школа, 2009. – 184 с.; Шляхтина Л. Основы музейного дела: теория и практика. – М.: Лань, Планета музыки, 2017. – 248 с.; Худякова Л. Музей в эпоху постмодерна: потери или возможности? // Вопросы музеологии. 2/2010. – С. 12-21.; Волкова Е. Музейный дизайн: историко-культурный анализ. автореф. на соискание уч.степ. кандидата культ. – Санкт-Петербург, 2021. – 21 с.; Захарченко И. Художественный музей как храм современной культуры (новые веяния в архитектуре и экспозиционной практике XX столетия). https://tourlib.net/statti_tourism/zaharchenko3.htm (Murojaat sanasi: 10.01.2024)

muzei me'moriy maydoni muhitining shakllanishi va tadrijiy rivojlanish jarayonlari bosqichlarini belgilash;

O'zbekistonda tarixiy obyektlarni muzei moslashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash;

O'zbekistonda muzei dizaynining zamonaviy ekspozitsiyasi rivojlanish tendensiyalarini belgilash;

muzei dizaynining mediakontentlar yechimidagi o'rni va virtual multimedia ko'rgazmalari asosidagi rivojlanish jarayonlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida O'zbekistondagi muzei binolari arxitekturasi va ekspozitsiyasi olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda muzei dizaynining arxitekturaviy va ekspozitsion yechimidagi badiiy yondashuvlar va rivojlanish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks tahlil, qiyosiy tahlil, xronologik, tizimli, tasnifiy kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda tarixiy binolardan muzei sifatida foydalanilish tajribasining shakllangani (XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmi), muzeilar uchun maxsus binolarni qurilishi amaliyotining rivojlanganligi (XX asr ikkinchi yarmi), muzei arxitekturasi dizayniga ko'p funksiyali (doimiy ekspozitsiya, vaqtinchalik ko'rgazmalar maydoni, zahiraxonalar, restavratsiya laboratoriyalari, kutubxona, art do'konlar va restoranlar) makonga ega majmuaviy art obyekt sifatida (XXI asr boshi) takomillashgani dalillangan;

XX asr ikkinchi yarmidan muzeilar ekspozitsiyasi dizaynida tarixiy-badiiy jarayonlar muhitini to'laqonli aks ettirish maqsadida xronologik tartibda tuzilgan klassik va tematik ekspozitsiyalar joriy etilgani, panoramalar tabiiy yechimdagi naturalistik dizayn uslubi bilan cheklanilganligi, ko'chma ko'rgazmalarining konstruksion yechimlarida illyustrativ-tematik panno, yordamchi ekspozitsion materiallar sifatida diorama, plakat hamda inoformativ etiketajlardan foydalanilganligi aniqlangan;

dekonstruktivizm, grin va kiberpank uslublaridagi loyihalarning muzeilar faoliyatiga tadbiiq etilishi muzei arxitekturasi dizaynida faol qo'llanilgan klassik, neoklatsizm uslublaridan cheklanish, konstruktivizm, funksionalizm, modernizm yo'nalishlarining takomillashishiga sabab bo'lganligi aniqlangan;

O'zbekistonda muzei ekspozitsion muhiti dastlab tarixiy binolar interyerida tashkil etilgan o'lkashunoslik muzeilari ekspozitsiyasi, keyinchalik muzei dizayni ergonomikasi negizida modullarga asoslangan tizim estetik va funksional badiiy muzeilar faoliyati asosida rivojlanganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshida tashkil etilgan Abdulla Oripov muzei ilmiy konsepsiyasi, O'zbekiston prokuraturasi tarixi, Jizzax viloyati prokuraturasi tarixi muzeilari ekspozitsiyasi yangi konsepsiyasini yaratishda foydalanilgan.

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida yangi muzei binolarining an'anaviy uslublar asosida qurilishi va ekspozitsiyasini loyihalashtirishdagi innovatsion

proyeksiyali yechim, interfaol panellar, gigapiksel rastr hajmida multimedia vositalaridan foydalanilish imkoniyatlariga oid ishlanmalar muzey dizayni tarixi va nazariyasini o'rganishda muhim manba bo'lishi barobarida ta'lim jarayonlarida «Muzey interyerini loyihalash» va «Muzey dizayni» kabi darslik hamda o'quv qo'llanmalarni yaratishda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi tadqiqot davomida XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida muzey dizaynining rivojlanishiga doir O'zbekiston madaniy meros arxivi, O'zbekiston Milliy arxivi kabi birlamchi manbalarga tayanilganligi, dissertatsiya natijalari dalillar vositasida asoslanganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xulosa va natijalarni asoslashda san'atshunoslik va qiyosiy yondashuvlarni qo'llagan holda O'zbekistonda muzey dizaynining rivojlanishiga oid badiiy jarayonlar tizimli tahlil asosida yoritilgani bois ulardan mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu natijalar Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida san'atshunos, muzeyshunos, arxitektor-dizayner, madaniy turizm mutaxassisliklari uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi, shuningdek, ulardan «Muzeyshunoslik», «O'zbekistonda muzey ishi tarixi», «Muzey dizayni» va «Muzey interyerini loyihalash» kabi mutaxassislik fanlarini o'qitishda va ular bo'yicha yangi darslik, o'quv qo'llanma hamda o'quv kurslar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari O'zbekistonda muzey dizaynining rivojlanish tamoyillari ilmiy tadqiqot ishini o'rganish yuzasidan olingan quyidagi ilmiy natijalar asosida:

O'zbekistonda XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmiga qadar tarixiy binolardan muzey sifatida foydalanilish tajribasining shakllanganligi, XX asr ikkinchi yarmidan boshlab muzeylar uchun maxsus binolarni qurilishi amaliyotining rivojlanganligi va keyinchalik harbiy-tarixiy, badiiy muzeylar uchun maxsus muzey binolar qurilganligi bo'yicha olingan natijalardan «Muzey dizayni» nomli o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 676-354 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada qo'llanma O'zbekistonda muzey dizaynining rivojlanishiga doir ilmiy-tadqiqot materiallari bilan boyitilishi, muzey arxitekturasi dizayniga oid badiiy jarayonlarni qo'shimcha manbalar to'ldirilishiga xizmat qilgan;

XX asr ikkinchi yarmidan muzeylar ekspozitsiyasi dizaynida klassik va tematik ekspozitsiyalar joriy etilganligi, ko'chma ko'rgazmalarning konstruksion yechimlarida illyustrativ-tematik panno, yordamchi ekspozitsion materiallar sifatida diorama, plakat hamda inoformativ etiketajlar muhim omil bo'lganligiga oid natijalardan «Tasviriy va amaliy san'at terminlarining o'zbek va ingliz tillaridagi elektron lug'at va mobil ilovasini yaratish» nomli amaliy loyihada

foydalanilgan (O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining 2022-yil 21-dekabrda CL88713143-son dalolatnomasi). Natijada grant loyihasi muzey dizayni va ekspozitsiyasiga oid atamalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

dekonstruktivizm, grin va kiberpank uslublaridagi loyihalarning muzeylar faoliyatiga tadbiiq etilishi muzey arxitekturasi dizaynida faol qo‘llanilgan klassik, neoklatsizm uslublaridan cheklanish, konstruktivizm, funksionalizm, modernizm yo‘nalishlarining takomillashganligiga oid natijalardan «O‘zbekiston tarixi» telekanalida efirga uzatilgan «Tarix va yangi talqin» ko‘rsatuvi ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston» teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 16-fevraldagi 01-06-393-son ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv muzeylar arxitekturasi yaratilish tarixi, rivojlanish jarayonlariga oid qiziqarli ma‘lumotlar bilan boyitilgan;

O‘zbekistonda muzey ekspozitsion muhiti dastlab tarixiy binolar interyerida tashkil etilgan o‘lkashunoslik muzeylari ekspozitsiyasi, keyinchalik muzey dizayni ergonomikasi negizida modullarga asoslangan tizim estetik va funksional badiiy muzeylar faoliyati asosida rivojlanganligiga oid ma‘lumotlardan «O‘zbekiston tarixi» telekanali «Taqdimot» ko‘rsatuvining ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston» teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 25-martdagi 06-31-647-son ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv ssenariysining muzeylar yaratilish tarixi, rivojlanish va tarixiy bosqichlari, ekspozitsiyasining takomillashuv jarayonlariga oid ma‘lumotlar kengaytirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (ulardan 6 tasi respublika va 2 tasi chet el jurnallarida) e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 146 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, davriy chegarasi, o‘rganilish darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning obykti va predmeti yoritilgan, muammoga oid manbalar tahlil qilingan, tadqiqot metodlari asoslangan, mavzuning ilmiy yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar, tadqiqot aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning «**Muzey binolari dizayni rivojlanishining ilmiy-amaliy aspektlari (xorijiy va mahalliy muzeylar talqinida)**» deb nomlangan birinchi bobida muzey binolari dizaynining rivojlanish va badiiy xususiyatlariga oid

tadqiqotlarning tahliliy o'rganilishi hamda muzey badiiy-me'moriy muhitining shakllanishi va rivojlanish tamoyillari tadqiq etilgan.

XX asrda O'zbekistonda dizayn bo'yicha nashr qilingan ilmiy ishlarda bayon qilingan nazariy fikrlar o'zining badiiy madaniyati, o'tmish an'anasi va kelajak innovatsiyasi, teran sayqal berilgan sharqona madaniyatini va jadal rivojlanayotgan yevropacha madaniyat bilan uyg'unlashtirayotgan O'zbekiston dizayni muammosini ko'rib chiqishni taqozo etadi¹¹. XX asrning 60-70-yillardagi muzeyshunoslik O'zbekistonda muzey tarmoqlarini keng ko'lamda kengaytirish ishlarining avj olganligi, moddiy-texnika bazasining tubdan yaxshilanganligi bilan birga, mavjud muammolarning hisobotlarda aks etishi O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlarida¹² va «O'zbekiston madaniyati»¹³ hamda «Toshkent binokori»¹⁴ davriy nashrlarida qisman yoritildi.

O'zbekiston muzeylari faoliyatiga bog'liq ilmiy nashrlar tahlili asosan tarixiy va madaniy - birinchi muzeylar paydo bo'lishi va ayrim muzeylarning ekspozitsion muhiti xususida umumiy ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. N.Sadikova¹⁵ning «Madaniy yodgorliklar xazinasi» monografiyasi O'zbekiston muzeylarining rivojlanish xususiyatlarini davr siyosati va g'oyaviy qarashlari asosida yoritilgan muhim manbalardan biri sanaladi. Unda bir qator muzeylarning ekspozitsiya faoliyatining rivojlanishi, tarixiy-badiiy tavsifi, madaniy-oqartuv jarayonlaridagi o'rni batafsil keltirib o'tilgan.

Xorijiy muzeyshunos, arxitektor olimlar izlanishlari negizida muzey dizaynining rivojlanishiga oid tadqiqotlar ko'lamiga nisbatan XX asr ikkinchi yarmidagi ilmiy manbalar ushbu bob qamrovini yoritishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

G'arbiy Yevropada muzey binolari dizayniga bo'lgan e'tibor boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha oldinroq rivojlangan. Muzeylar uchun qurilgan maxsus binolar muzey kolleksiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zining me'moriy shakllari, rejalashtirish yechimlari va interyer dizayni bilan alohida ajralib turgan. E.Verner, C.Joanne, M.Gautran, E.Bogle, R.Banham¹⁶ va arxitektorlar R.Meyer, P.Pyano, T.Ando¹⁷ ilmiy ishlarida muzey arxitekturasi,

¹¹ Акилова К. Дизайн назарияси, амалиёти ва ривожланиш истиқболи. // San'at. – Тошкент, 2014. – № 3. – Б. 8.

¹² Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 3-рўйхат, 11-йиғма жилд, 30-31 варақлар.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 7-рўйхат, 299-йиғма жилд.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 7-рўйхат, 568-йиғма жилд.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2487-фонд. 2-рўйхат, 885-иш, 54-59 варақлар.; Ўзбекистон Миллий архиви. 394-фонд, 1-рўйхат, 300-иш, 57-варақ.

¹³ Қодиров Э. Ранг баранг экспонатлар // Ўзбекистон маданияти. – Тошкент, 1978 йил 21 март. – № 23 (2289). – Б. 2.; Ўзбекистон маданияти. 1978 йил 29 декабрь. № 103 (2369); Ўзбекистон маданияти. 1978 йил 21 июль. № 58 (2324); Ўзбекистон маданияти. 1978 йил 15 декабрь. № 99 (2365).

¹⁴ Тошкентда Марказий музей // Тошкент бинокори. – Тошкент, 1968 йил 2 июнь. – № 64 (295). – Б. 4.

¹⁵ Садикова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975. – 290 с.; Содикова Н.Маданий ёдгорликлар хазиnasi. Т.:Фан, 1981. – 266 б.

¹⁶ Verner E., Joanne C. Museum collection storage. Published by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. 1979. – 56 p.; Gautran M. Museum Architecture and Interior Design. Gonkong: Dizayn Media. 2014. – 256 p.; Bogle E. Museum Exhibition Planning and Design. USA: AltaMira Press, 2013. – 418 p.; Banham R. Age of the Masters: A Personal View of Modern Architecture. Harper & Row., 1975. – P. 164-167.

¹⁷ Meier R. Making Architecture. The Getty Center. The J. Paul Getty Trust Los Angeles, 1997. – 179 p. ; Ando T. Tadao Ando at Naoshima: Art Architecture Nature. 2006. – 208 p.; Piano R. Whitney: The Whitney Museum of Art. 2015. – 196 p.

uning ixtisosligi, ashyolari negizida shakllantirish tamoyillari xususida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, asosan tabiiy-ilmiy va zamonaviy san'at muzey obyektlari misolidagi loyihalar ilova qilingan edi. XX asrning 60-yillariga kelib arxitekturada binoning o'zi ko'rgazma obyektiga aylanadi hamda tashrif buyuruvchilarni noan'anaviy (asosan dekonstruktivizm) shakllari bilan jalb qila boshladi¹⁸.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyoda ko'plab turli xil ixtisoslikdagi muzeylar qurildi. Muzey arxitekturasi, dizayni bo'yicha turli xil mutaxassislar fikrlari jamlangan alohida jurnal sonlari chop etildi¹⁹. Jurnal maqolalarida muzey arxitekturasi doir faqatgina davriy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, tanqidiy munozaralarga boy maqolalar ham taqdim etilgan edi. Asosiy maqola mualliflari muzey ekspozitsiya muhitini loyihalash muammolarini o'rganishda yetakchi arxitektura maktablari mutaxassislari, shu jumladan Turin Politehnika universiteti (Italiya) qoshidagi arxitektura fakulteti o'qituvchilari, Lester universiteti (Angliya) va Filadelfiya san'at universiteti (AQSh) muzeyshunoslik bo'yicha (PhD va DSc) tadqiqotchilari va Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshidagi Muzeyshunoslik ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimlari edi.

Rossiyada muzey ekspozitsiyasi dizaynining muzeyshunos olimlar tomonidan keng o'rganilishi XX asrning 1950-yillaridan boshlangan. Bu borada birinchilardan bo'lib mazkur soha bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan olimalardan biri A.Mixaylovskaya²⁰ tomonidan yozilgan ilmiy ish muhim ahamiyat kasb etadi. Unda asosan ekspozitsiyani yaratishda xorij tajribasining o'rni, ekspozitsiyani tuzish metodlari, ekspozitsiyaning tematik rejasini yaratish tizimlashtirilgan holda yoritilgan. I. Gorbunov, R. Kliks, A. Sherbina, A. Budko, K. Xudyakov²¹ tadqiqotlarida esa asosan badiiy ekspozitsiya muhitini yaratishda rang va yorug'lik yechimi, muzey ashyolarini joylashtirish hamda yordamchi ekspozitsion materiallar xususida ta'limiy xarakterdagi ma'lumotlar keltirilgan edi.

MDH davlatlarida muzeylar arxitekturasi masalasiga qiziqish 1990-yillar oxirlariga to'g'ri kelib, mavjud muzey binolarida reekspozitsiyalar olib borildi. Tadqiqotchilar tomonidan bu sohaning nazariy jihatdan o'rganilishi keng tus oldi²².

¹⁸ Дженкс Ч. и Айзенман П. Деконструктивизм изнутри и снаружи; Ильин И.П. Постструктурализм. Деконструктивизм. Постмодернизм; Сапанжа О. С. Современный художественный музей: на службе человечеству или человеку? // В поисках музейного образа: материалы науч. конф., Санкт-Петербург. 2007; 12–13 апр; Proudfoot, Peter R. Deconstructivism and Architectural Science. Architectural Science Review 34, no. 2 (June 1991): 55–63.

¹⁹ http://www.museolog.ru/library/museum_international_rus/index.php (Murojaat sanasi: 16.06.2023.); <https://www.speech.su/ru/11-museum> (Murojaat sanasi: 16.06.2023)

²⁰ Михайловская А. Музейная экспозиция. – М.: Советская Россия, 1964. – 520 с.

²¹ Горбунов И. Архитектоника музейной экспозиция: предметно-пространственная среда и основы функционального и художественного проектирования музеев. Монография. – Витебск: ВГУ имени П.М.Машерова, 2015. – 104 с.; Ўша муаллиф. Музейная экспозиция: цвет, пластика, пространство (в контексте проектной культуры последнего тридцатилетия). Монография. – Витебск: ВГУ имени П.М.Машерова, 2017. – 167 с.; Щербина А. Музейное проектирование. – Тольятти: ТГУ, 2011. – 68 с.; Будко А. Научная концепция экспозиции // Мир музея. – Москва, 2007. – № 5 (237). – С. 8-15.; Худякова Л. Музей в эпоху постмодерна: потери или возможности? // Вопросы музеологии. – Москва, 2010. – № 2. – С. 12-21.

²² Сурикова К. Культурный контекст эволюции музейной архитектуры. автореф. на соискание уч. степ. кандидата культ. – Санкт-Петербург, 2017. – С 8.

Xorij hamda rus olimlari tomonidan muzey dizayni sohasining alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi keng tus olgan bo'lsa²³, O'zbekistonda esa asosan muzey binolari va ekspozitsiyasi dizaynining tadqiq etilishi muzey ishining rivojlanish jarayoni bilan bog'liq holda o'rganilgan²⁴. Muzey binolarining qurilishi, muzey dizayni bo'yicha fundamental maqolalar chop etilmagan hamda ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Muzey arxitekturasi ma'lum muzey funksiyalarini, xususan ko'rgazma va namoyish, profilaktika va muzey ashyolari muhofazasiga oid jarayonlarga moslashtirilgan binolarni loyihalash, o'rganish, boshqarish va tomoshabinlar uchun ekspozitsiyalarni loyihalash san'ati A.Ryabushin, V.Revyakin, A.Bronovitskaya, N.Malinin, Yu.Palmin²⁵ tadqiqotlarida tahlil etilgan.

Aksariyat muzey binolarining faqatgina arxitekturasini o'ziyiq tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Masalan, Zaha Hadid loyihasi asosida qurilgan Rimdagi XXI asr san'ati milliy muzeyi Maxxi 2010-yilda ochilgan bo'lsada, tashrifchilarni 2009-yildan qabul qila boshlagan. Sababi muzey dastlab ekspozitsiyani emas, balki bino arxitekturasini namoyish etgan²⁶. Muzey toki ekspozitsiya tayyor bo'lgunga qadar tashrifchilarga 3 yil davomida arxitekturasini tomosha qilish tashkillashtirilgan hamda ushbu davr ichida muzeyga tashrif buyuruvchilar soni 200 mingdan ortgan²⁷.

Muzeyning me'moriy shakllarini tahlil qilish, ularni tarixiy va madaniy sharoitda o'zgarish evolyutsiyasini aniqlashga qaratilganligi sababli, Yevropa olimlari tadqiqotlarida muzey arxitekturasini sintetik madaniy hodisa sifatida e'tirof etilganligi AQSh arxitektorlari nazariyasida muzey binolari nafaqat estetik va madaniyatni yaratuvchi, balki obyektning o'zi alohida ko'rgazma ekspozitsiyasi ko'rinishida talabgir bo'lishi sifatida qabul qilindi.

Arxitekturasiga oid tadqiqotlar esa turli xil tahliliy materiallarni o'z ichiga oladi, ammo ilmiy izlanishlar ko'lami muzey me'morchiligining mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari va o'zgarishlar konteksti haqida tizimli tasavvur bermaydi. Ushbu tadqiqotlarning to'liq holda bayon etilmaganligi (alohida muzey obyektlariga haddan tashqari ixtisoslashuv va konsentratsiya nuqtai nazaridan)

²³ Майстровская М. Композиционно-художественные тенденции формирования музейной экспозиции: В контексте искусства, архитектуры, дизайна. автореф. на соискание уч.степ. кандидата искусств. – Санкт-Петербург, 2002. – С.51.; Бакушкина Е. Архитектура музейных зданий второй половины XX – XXI века. автореф. на соискание уч.степ. кандидата искусств. – Санкт-Петербург, 2016. – 27 с.; Сурикова К. Культурный контекст эволюции музейной архитектуры. автореф. на соискание уч.степ. кандидата культ. – Санкт-Петербург, 2017. – 26 с.; Волкова Е. Музейный дизайн: историко-культурный анализ. автореф. на соискание уч.степ. кандидата культ. – Санкт-Петербург, 2021. – 21 с.

²⁴ Курязова Д. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фан. ном. дис. ... автореферати. – Тошкент, 2009. – 50 б.; Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991–2000 гг.) автореф. на соиск. уч. ст. докт. ист. наук. – Ташкент, 2012. – 50 с.; Нишанова К. XX-XXI асрларда Ўзбекистон бадиий музейларининг ривожланиш тенденциялари. Санъатшунослик фан. ном. дис. ... автореферати. – Тошкент, 2021. – 48 б.

²⁵ Рябушин А. Новые горизонты архитектурного творчества, 1970–1980-е годы. – М.: Стройиздат, 1990. – 327 с.; Ревякин В. Художественные музеи: Справ.пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Стройиздат, 1991. – 248 с.; Бронувицкая А., Малинин Н., Пальмин Ю. Москва: архитектура советского модернизма. 1955-1991. Справочник-путеводитель. – 2-е изд., испр. – М.: Гараж, 2016. – 327 с.

²⁶ Glebelhausen M. The architecture is the museum // New museum theory and practice: an introduction/ed.by J.Marstine.Oxford:Blackwell Publishing Ltd., 2006. S.1. – P. 41-42.

²⁷ Зауров И. Между линиями // Пинакотека. – Москва, 2000. – № 12. – С.18.

muzei arxitekturasining rivojlanish nazariyasini yaxlit asosda tizimlashtirishda qisman mavhumlikni ham keltirib chiqardi.

O'zbekiston muzeylari faoliyatiga bog'liq ilmiy nashrlar tahlilida esa faqatgina tarixiy va madaniy - birinchi muzeilar paydo bo'lishi va qisman ekspozitsion muhit xususida umumiy ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. Aynan shu yondashuvlar mahalliy muzeylarning o'ziga xos muzei arxitekturasini shakllarini tahlil qilish imkonini bermaydi.

Dissertatsiyaning «**O'zbekistonda muzei arxitekturasining shakllanishi va transformatsiyasi (XX asr ikkinchi yarmi)**» deb nomlangan ikkinchi bobida arxitektura obyektlarida muzeilar tashkil etish va moslashtirish jarayonlari hamda O'zbekistonda muzeilar uchun maxsus binolar qurilish tarixi 1960-90-yillar kesimida yoritilgan.

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra muzei binolarining 80 % avval boshqa maqsadlarda qo'llanilgan saroy, qal'a, diniy qurilmalar, jamoat va boshqa soha uchun qurilgan binolarga joylashtirilgan²⁸. Odatda bu binolarning interyerlari muzei vazifalariga moslab qayta rekonstruksiya qilinadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tarixiy yodgorliklar interyerlarining sochilib ketganligi va tarqoqligi tufayli tarixiy saroy va qarorgohlarni konservatsiyalash imkoni bo'lmadi. Turli siyosiy jarayonlar ta'sirida saroy mulki bo'laklarga bo'linib, turli tashkilotlar ixtiyoriga berilgan edi, buning oqibatida birorta ham saroy-muzeini dastlabki ko'rinishida qayta tiklashning iloji topilmadi. Shunga o'xshash saroy binolari O'rta Osiyoning ko'pgina shaharlarida, jumladan, Qo'qon, Buxoro, Xiva va boshqa joylarda saqlanib qoldi. Ulardan ommaga g'oyaviy ta'sir o'tkazishda muhim vosita sifatida foydalanildi. Bu jarayonda Xudoyorxon o'rdasi, Buxoro amirining Sitorai Moxi Xossa yozgi rezidensiyasi, Nurullaboy saroyi, savdogar Polovsev uyi, savdogar Qalantarov uyi, Toshkentdagi knyaz Romanov qarorgohi kabi bir qancha obyektlar noyob arxitektura obyekti va muzei sifatida o'zgacha uyg'unlikni kasb etdi.

Toshkentni sovet modernizmining poytaxtlaridan biriga aylantirgan muhim voqea 1966-yildagi zilzila bo'lib, shaharning katta qismini deyarli butunlay vayron qildi. Keyin uni sovet Ittifoqi bo'ylab me'morlar va quruvchilar tomonidan zudlik bilan tiklash to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu tariqa Toshkent qiyofasini tubdan o'zgartirgan shahar hodisasi paydo bo'ldi. Ba'zi tadqiqotchilar buni "seysmik modernizm" deb atashadi²⁹.

O'zbekistonda muzeyshunoslik sohasi o'z taraqqiyoti davomida katta va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Madaniy qurilishning umumiy vazifalariga javob beruvchi yangi va mukammal shakl-uslublarni izlash muzeilar faoliyatining qizg'in ijodiy faoliyatini belgiladi. 1960-1980-yillarda muzeyshunoslikda ulkan material, diqqatga sazovor ko'p qirrali tajriba to'plandiki, ular muzei qurilishining keyingi rivojida muvaffaqiyat bilan qo'llandi. Bunda modernizm, postmodernizm, konstruktivizm uslublaridagi funksionalizm yechimi muzei arxitekturasini metamorfozi davri bo'ldi. Toshkentdagi Markaziy ko'rgazmalar zali, sobiq Lenin

²⁸ Курязова Д. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фан. ном.дис.– Тошкент, 2009. – Б.50.

²⁹ Кадырова Т. Архитектура Советского Узбекистана – М.: Стройиздат, 1987. – С. 87.

muzeyi, Geologiya muzeyi arxitekturasi ushbu davrning o'ziga xos funksional ko'rgazma obyektlariga aylandi.

Shuningdek, 1960-yillarning ikkinchi yarmi va 1970-yillarning boshlarida muzey qurilishida yirik muzeylar va muzey majmualari markaziy rol o'ynadi, ular atrofidagi landshaft maydonlari ham uyg'unlashtira boshlandi. Sobiq Xalqlar do'stligi muzeyi, O'zbekiston davlat san'at muzeyi, Samarqanddagi O'zbekiston madaniyati tarixi muzeyi arxitekturasida muzey qurilishi uchun barqaror formulalarning paydo bo'lishi, modernizmning elementlarining yo'qolishi, ularga badiiy bezak berishda «marmar plitalar»ning ustunligini ko'rish mumkin.

Biroq 1960-1980-yillardagi zamonaviylik g'oyalariga urg'u berilgan modernizm me'morchiligi hech qachon meros sifatida qabul qilinmadi. 1980-yil oxirlariga kelib esa muzeylar qurilishida ham, ekspozitsiyalar yechimida ham deyarli rivojlanish kuzatilmadi. Bu davrda asosan futurizm va funksionalizm kesimida kichik ko'rgazma zallari, teatr binolari va madaniyat saroylari qurilishi bilan cheklanildi. O'zbekiston hududida ham bu davrda deyarli hech qanday muzey obyektlari qurilishi aniqlanmadi. Bozor iqtisodiyotining kelishi bilan va O'zbekiston 1991-yilda erishgan mustaqilligidan so'ng ijtimoiy masalalar va sarf xarajatlarni tejashga qaratilgan undan avvalgi o'n uch yillikning me'morchiligi o'z ahamiyatini yo'qotadi³⁰.

1960-1980-yillar O'zbekistonda 25 ga yaqin o'lkashunoslik muzeylari uchun maxsus binolar qurilgan bo'lsa, 1990-2000-yillarda sezilarli darajada kamayib 5 ta, so'nggi to'rt yilda esa 6 ta muzey uchun maxsus binolar loyihalashtirilganligini kuzatish mumkin. O'lkashunoslik muzeylari arxitekturasida birinchi navbatda simmetriyaga asoslanish uchun qismli fasad kompozitsiyasini shakllantirish, o'ziga xos "qolip"ga ega bir xillik kuzatildi. Jumladan, Oqqo'rg'on shahar tarix o'lkashunoslik muzeyi, Andijon viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi uchun qurilgan binolar tashqi dizayni deyarli bir qolipda jamoat binolari ko'rinishida barpo etilgan edi.

